

# FUNDAMENTAL TADQIQOTLAR JURNALI

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

AKRAMOVA Aziza Abduvohidovna

TDIU

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15552822>

## YANGI TURDAGI TASHKILOTLARDA INTEGRATSIYALASHISH VA HAR TOMONLAMA RIVOJLANISH JARAYONLARI

### ANNOTATSIYA

Yangi turdagi tashkilotlar zamonaviy texnologik yuksalish, raqamli transformatsiya va bilimga asoslangan iqtisodiyot sharoitida shakllanib, o'z faoliyatida moslashuvchanlik, innovatsion salohiyat va tizimli integratsiyalashuv tamoyillariga tayangan holda rivojlanmoqda. Ular an'anaviy vertikal ierarxiyalar o'rniga gorizontol, tarmoq markazli va platformaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etib, resurslarni samarali taqsimlash, raqamli yechimlar orqali qarorlar qabul qilish va inson kapitalini strategik aktiv sifatida boshqarish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Mazkur maqolada yangi tipdagi tashkilotlarning tashkiliy model va mexanizmlari, jumladan sun'iy intellektga asoslangan boshqaruv tizimlari, gibrid va modulli tuzilmalar, ambidekstriya tamoyillari asosida olib borilayotgan rivojlanish jarayonlari tahlil qilinadi. Shuningdek, integratsiyalashuvning vertikal va gorizontol shakllari, tashkilotlararo kooperatsiya, innovatsion ekotizimlar bilan uyg'unlashuv masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** yangi turdagi tashkilotlar, integratsiyalashuv, innovatsion rivojlanish, tarmoq markazli model, ambidekstriya, modullik, sun'iy intellekt, raqamli transformatsiya, institutsional moslashuv, boshqaruv tizimi.

## INTEGRATION IN NEW TYPES OF ORGANIZATIONS AND ALL-ROUND DEVELOPMENT PROCESSES

### ANNOTATION

New types of organizations modern technological rise, digital transformation and is formed in the conditions of a knowledge-based economy, developing in its activities, relying on the principles of flexibility, innovative potential and systematic integration. They are introducing horizontal, network-centric, and platform management mechanisms instead of traditional vertical hierarchies to be able to efficiently allocate resources, make decisions through digital solutions, and manage human capital as a strategic asset.

This article analyzes the organizational models and mechanisms of organizations of a new type, including management systems based on artificial intelligence, hybrid and modular structures, development processes carried out on the principles of ambidexterity. Also covered are the issues of vertical and horizontal forms of integration, inter-organizational cooperation, harmonization with innovative ecosystems.

**Keywords:** new types of organizations, integration, innovation development, network-centric model, ambidexterity, modularity, artificial intelligence, digital transformation, institutional adaptation, management system.

## ИНТЕГРАЦИЯ В ОРГАНИЗАЦИИ НОВОГО ТИПА И ПРОЦЕССЫ ВСЕСТОРОННЕГО РАЗВИТИЯ

### АННОТАЦИЯ

Новые типы организаций современный технологический подъем, цифровая трансформация и формируется в условиях экономики, основанной на знаниях, и развивается, опираясь в своей деятельности на принципы гибкости, инновационного потенциала и системной интеграции. Они внедряют горизонтальные, сетевые и платформенные механизмы управления вместо традиционных вертикальных иерархий, чтобы иметь возможность эффективно распределять ресурсы, принимать решения с помощью цифровых решений и управлять человеческим капиталом как стратегическим активом.

В данной статье будут проанализированы организационные модели и механизмы новых типов организаций, включая системы управления на основе искусственного интеллекта, гибридные и модульные структуры, процессы развития на основе принципов амбидекстрии. Также освещаются вопросы вертикальной и горизонтальной форм интеграции, межорганизационной кооперации, интеграции с инновационными экосистемами.

**Ключевые слова:** новые типы организаций, интеграция, инновационное развитие, сетевая модель, амбидекстрия, модульность, искусственный интеллект, цифровая трансформация, институциональная адаптация, система управления.

### *Kirish*

XXI asr boshlaridan boshlab globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, raqamli texnologiyalarning eksploziv rivojlanishi hamda bilimga asoslangan iqtisodiyotning shakllanishi bilan tashkilotlar oldida tubdan yangi chaqiriqlar va imkoniyatlar paydo bo'ldi. Bu holat korxonalar va tashkilotlar faoliyatini nafaqat texnologik, balki institutsional, boshqaruv va ijtimoiy nuqtai nazardan ham qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Aynan shunday sharoitda "yangi turdagi tashkilotlar" konsepti ilmiy va amaliy muhitda alohida e'tibor markaziga aylana boshladi. Bunday tashkilotlar an'anaviy modellar o'rniga tarmoq markazli, gibrid, modulli va platformaviy boshqaruv mexanizmlarini qo'llash orqali tashkiliy moslashuvchanlik, innovatsion salohiyat va transformatsion barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan.

Yangi avlod tashkilotlarining asosiy farqlovchi jihatlaridan biri bu – ambidekstriya (ekspluatatsiya va eksploratsiyani bir vaqtning o'zida amalga oshirish) tamoyiliga asoslangan boshqaruv falsafasidir. Bunda tashkilot bir vaqtning o'zida mavjud resurslardan maksimal foydalanishni (ekspluatatsiya) va yangi bilimlar, innovatsiyalar va bozorlarga kirib borishni (eksploratsiya) uyg'unlashtiradi. Shuningdek, raqamli transformatsiya jarayonlari natijasida sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data), bulutli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari ushbu tashkilotlarning asosiy ustunlariga aylanmoqda.

Yangi tipdagi tashkilotlar nafaqat ichki struktura darajasida, balki tashqi muhit bilan o'zaro aloqadorlik, ya'ni institutsional integratsiyalashuv jarayonlarida ham faol ishtirok etmoqda. Ular turli shakldagi vertikal (ta'minot zanjiri integratsiyasi, holding tuzilmalar) va gorizontal (startaplar bilan hamkorlik, innovatsion ekotizimlarga qo'shilish, konsorsiumlar tuzish) integratsiya mexanizmlaridan foydalangan holda tashkilotlararo sinerjiyani kuchaytiradi. Bu esa ularning raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion rivojlanishni jadallashtirish va tashqi muhitdagi tahdidlarni tezda bartaraf etish imkonini beradi.

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida tashkilotlarning muvaffaqiyat kaliti nafaqat ichki resurslar va jarayonlarni optimallashtirishda, balki ular faoliyat yuritayotgan institutsional makon, raqamli ekotizimlar, hamkorlik tarmoqlari va bilimlar oqimini boshqarish qobiliyatida mujassam. Shu bois, ilmiy va amaliy doiralarda yangi turdagi tashkilotlar modelining shakllanishi, ularning tizimli integratsiyalashuvi, transformatsion qobiliyati va boshqaruv mexanizmlarini chuqur tahlil qilish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

### *Tadqiqot metodologiyasi*

Zamonaviy tashkilotlar transformatsiyasi, ayniqsa, 2010-yillardan keyingi global raqamli inqilob davrida o'zining keskin intensivlashuvi bilan tavsiflanadi.

2023-yil holatiga ko'ra, McKinsey Global Instituti tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalariga asoslanadigan bo'lsak, dunyo bo'ylab korporatsiyalarning 65% dan ortig'i o'zlarining tashkiliy tuzilmasini platformaviy, tarmoq markazli yoki modulli modelga o'tkazishni boshlagan yoki rejalashtirayotganligini bildirgan. Ayniqsa, ambidekstri boshqaruv modellarini qo'llayotgan kompaniyalar boshqa klassik strukturalarga nisbatan o'rtacha 28% yuqoriroq innovatsion rentabellikka erishgan.

#### *Global integratsion jarayonlar statistikasi*

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2022-yilgi raqamli rivojlanish hisoboti ma'lumotlariga ko'ra:

- Dunyodagi yirik kompaniyalarning 58% dan ortig'i gorizontal integratsiya (strategik hamkorliklar, innovatsion alyanslar, konsorsiumlar) orqali yangi mahsulot va xizmatlarni yaratmoqda.

- Vertikal integratsiyani muvaffaqiyatli joriy qilgan kompaniyalar (masalan, Tesla, Huawei, Amazon) o'z ishlab chiqarish zanjirini to'liq nazorat qilgan holda xarajatlarni o'rtacha 18–22% ga kamaytirgan.

WEF (World Economic Forum) ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil holatida eng ilg'or "yangi turdagi tashkilotlar" guruhiga kiruvchi kompaniyalar quyidagilardir: Siemens, Alibaba, Salesforce, Spotify, Bosch. Ularning barchasida quyidagi xususiyatlar mavjud:

- Raqamli hamkorlik platformalaridan foydalanish (API, IoT, blockchain).
- Inson kapitalining barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan o'quv ekotizimlari.
- Sun'iy intellekt asosida avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish modullari.

#### *O'zbekiston sharoitidagi real holat va potensial imkoniyatlar*

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining 2024-yil I chorak hisobotiga ko'ra, mamlakatda yangi turdagi tashkilotlar modellari hali keng ommalashmagan bo'lsa-da, muayyan ijobiy siljishlar kuzatilmoqda. Jumladan:

- 2021–2024 yillarda yirik va o'rta korxonalarining 19,3% qismi raqamli boshqaruv tizimlarini joriy qilgan (ERP, CRM, BI platformalar).

- Hozirda faoliyat yuritayotgan texnoparklar soni – **20 ta**, ular tarkibida 370 dan ortiq innovatsion tashkilotlar ishlamoqda, ularning 40% gacha qismi gibril va modulli tuzilmalarga asoslangan.

- Tadbirkorlar va IT-soha vakillari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomaga (2024, MITC)ga ko'ra, respondentlarning 52% tashkiloti kelgusi 3 yil ichida tashkilotlararo strategik hamkorlikni kengaytirishni rejalashtirmoqda.

Yangi turdagi tashkilotlarning shakllanishi va ularning integratsion rivojlanish trayektoriyalarini chuqur tahlil qilish uchun ko'p bosqichli metodik dizayn ishlab chiqilishi zarur. U quyidagi tarkibiy komponentlarni o'z ichiga oladi:

1. Nazariy-konseptual asoslash – tadqiqotning birinchi bosqichida yangi tipdagi tashkilotlar fenomenini aniqlash, ularning strukturaviy va funksional xususiyatlarini izohlash uchun zamonaviy nazariyalar:

- Kompleks moslashuvchan tizimlar nazariyasi (Complex Adaptive Systems),
- Ambidekstriya modeli,
- Ochiq innovatsiyalar paradigmasi (Open Innovation),
- Raqamli institutsionallik kontsepti asos sifatida qabul qilindi.

2. Kritik diskursiv tahlil – mavjud ilmiy adabiyotlar, global amaliyotlar va institutsional model misollarini tanqidiy ko'rib chiqish orqali zamonaviy tashkilotlarning rivojlanish modeliga ta'sir qiluvchi endogen va ekzogen omillar aniqlab chiqildi.

Bunda metod sifatida:

- Struktural kontent-tahlil,
- Deduktiv taxliliy sintez,
- Nazariy triangulyatsiya yo‘li bilan bir nechta paradigmalarning uyg‘unlashuvi ta‘minlanadi.


3. Empirik kuzatuv va tipologik modellashtirish – ayrim ilg‘or xorijiy tajribalarning (Google, Haier, Alibaba, Siemens va b.) tashkiliy modellariga tayanib, yangi turdagi tashkilotlarning arxitekturasi va boshqaruv tizimlariga oid induktiv generalizatsiya asosida model yaratildi. Ushbu bosqichda:

- Korporativ tuzilmalarni semantik xaritalashtirish,
- Institutsional komponentlararo interaktsiyani simulyatsiyalash,
- Tashkilotlararo integratsiya darajasini matritsali baholash kabi ilg‘or usullar qo‘llaniladi.

4. Ssenariyli-prognostik taxlil – yangi turdagi tashkilotlar rivojining istiqbolli ssenariylarini ishlab chiqish uchun nashrlararo ekstrapolyatsiya va variantli strategik modellashtirish usullaridan foydalanildi. Bu orqali tashkilotlarning o‘zgaruvchan muhitga nisbatan reaktiv va proaktiv javob berish qobiliyatlari baholanadi.

5. Komparativ institutsional tahlil – O‘zbekistonning raqamli transformatsiya sharoitida yangi turdagi tashkilotlarni rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgan tizimli va institutsional to‘siqlar aniqlanib, ularni chetlab o‘tish bo‘yicha normativ takliflar ishlab chiqildi. Bu bosqichda:

- Regulyator-muvofiqlik tahlili,
- Tashkiliy-kul‘turologik diskrepansiyalarni aniqlash,
- Normativ institutsional darajadagi divergentsiyalarni chizma asosida baholash amalga oshiriladi.



**1-rasm. Yangi turdagi tashkilotlar bo‘yicha statistic ko‘rsatkichlar**

Ushbu diagramma gorizontal ustunli grafik shaklida bo‘lib, turli innovatsion jarayonlar va ularni joriy qilgan tashkilot yoki kompaniyalar ulushini foizlarda ifodalaydi. Quyida har bir ustunning mazmuni va foiz ko‘rsatkichi keltirilgan:

1. Dunyo bo'yicha platformaviy strukturaga o'tgan kompaniyalar – 65.0%. Bu eng yuqori ko'rsatkich bo'lib, kompaniyalar raqamli platformalar asosidagi modelga o'tishni jadallash-tirayotganini ko'rsatadi.

2. Strategik hamkorlikni rejalashtirayotgan subyektlar – 52.0%. Bu tashkilotlarning yarmidan ko'prog'i uzoq muddatli hamkorlikka e'tibor qaratayotganini anglatadi.

3. Texnoparklardagi innovatsion tashkilotlar ulushi – 40.0%. Bu texnoparklarda faoliyat yuritayotgan innovatsion tashkilotlarning umumiy ulushini bildiradi.

4. Ambidekstriq model orqali yuqori rentabellikka erishganlar – 28.0%. Bu ikki yo'nalishni birgalikda olib boruvchi (ya'ni ekspluatatsiya va eksploratsiya) tashkilotlarning rentabellikka erishgan qismini ko'rsatadi.

5. Raqamli tizimlar joriy qilgan O'zbek korxonalarini – 19.3%. Bu raqamli texnologiyalarni tatbiq qilgan O'zbekiston korxonalarining eng past ulushga ega ekanligini bildiradi.

Bosqich	Tashkiliy xususiyatlar	Integratsiya darajasi	Rivojlanish strategiyasi
1-bosqich	Avtonom faoliyat: An'anaviy, yopiq tizim	Past	Resurslarni ichki imkoniyatlar hisobiga boshqarish
2-bosqich	Ichki transformatsiya: Raqamli jarayonlarni boshlash	O'rta	Texnologik joriy qilish va resurs optimallashtirish
3-bosqich	Tarmoq integratsiyasi: Sheriklik va strategik aloqalar	Yuqori	Kross-sektor hamkorlik, texnopark va platformalar bilan ishlash

## 2-rasm. Integratsiyalashgan tashkilotlar evolyutsiyasi modeli

### 1-bosqich – Avtonom faoliyat

An'anaviy tashkilotlar yopiq tizimda faoliyat yuritadi. Bunday tuzilmalar tashqi hamkorlikdan yiroq bo'lib, ichki resurslarga tayanadi. Innovatsion salohiyat past, raqamli texnologiyalar joriy qilinmagan. Asosan barqarorlikni emas, omon qolishni ko'zlaydi. Bunday yondashuv bilan faoliyat yuritayotgan korxonalar bozor sharoitida zaif holatda bo'ladi.

### 2-bosqich – Ichki transformatsiya

Tashkilotlar ichki tizimlarni raqamlashtirish, avtomatlashtirishga kirishadi. Resurslardan samaraliroq foydalaniladi, ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi. Biroq bu bosqichda tashqi integratsiya hali cheklangan bo'lib, o'zgaruvchan bozor talablariga to'liq javob bera olmaydi. Bu bosqich – o'sishga tayyorgarlik jarayoni hisoblanadi.

### 3-bosqich – Tarmoq integratsiyasi

Korxonalar strategik sheriklik, texnoparklar, klasterlar bilan hamkorlikka kirishadi. Bilimlar va texnologiyalar almashinuvi faollashadi. Innovatsion loyihalar soni ortadi. Tarmoq ichida ishtirok etuvchi tashkilotlar bir-birini to'ldiradi, bu esa rivojlanishni tezlashtiradi. Shu bosqichdan boshlab tashkilotlar raqobatda ustunlikka ega bo'ladi.

#### *4-bosqich – Ekotizim modeli*

To'liq integratsiyalashgan tashkilotlar ochiq platformalar asosida faoliyat yuritadi. Ular global ekotizimlarning faol ishtirokchisiga aylanadi. Innovatsiyalar tez sur'atda joriy etiladi, tashkiliy struktura moslashuvchan va shaffof bo'ladi. Bu bosqichda barqaror o'sish, ijtimoiy innovatsiyalar va ilg'or texnologiyalar uyg'unlashgan holda rivojlanish ta'minlanadi.

#### **Xulosa**

Yangi turdagi tashkilotlarda integratsiyalashish va har tomonlama rivojlanish jarayonlarini o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy boshqaruv amaliyotida tashkilotlar o'z salohiyatini faqat ichki resurslar hisobiga emas, balki tashqi muhit bilan samarali hamkorlik orqali mustahkamlashga intilmoqda. Integratsiyalashuv bu yerda nafaqat texnologik va iqtisodiy jihatdan, balki tashkiliy, institutsional va ijtimoiy jihatdan ham chuqur o'zgarishlar tizimini anglatadi. Tashkilotlarning tarmoqlashuvi, ochiqligi va strategik sheriklikka asoslangan faoliyati ularning innovatsion salohiyatini kuchaytirib, raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Maqolada keltirilgan tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, integratsiyalashgan va moslashuvchan tizimlarga ega tashkilotlar kelajakda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy omillardan biri bo'ladi. Shu bois, tashkilotlarning institutsional transformatsiyasini chuqurroq tadqiq etish, ularni tarmoqli ekotizimlar doirasida baholash hamda boshqaruvning yangi yondashuvlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy va amaliy vazifa bo'lib qolmoqda.

**ИҚТИБОСЛАР. REFERENCES. СНОСКИ.**

1. Schiuma, G., & Carlucci, D. (2021). Knowledge Assets and Digital Transformation in the Age of Industry 4.0. *Journal of Intellectual Capital*, 22(3), 511–531.
2. Xamidova, N. (2023). Innovatsion rivojlanish strategiyalarining zamonaviy tendensiyalari: O‘zbekiston tajribasi. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy jurnali*, 1(2), 48–57.
3. Gulomov, S., & Rakhimova, D. (2022). Institutsional muhit va raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarni transformatsiyalash. *TDIU Ilmiy axborotnomasi*, 3(4), 85–93.
4. Lichtenthaler, U. (2022). Open Innovation and Organizational Agility: A Dynamic Capabilities Perspective. *Journal of Strategy and Management*, 15(1), 37–52.
5. World Economic Forum (2023). *The Future of the Corporation: Rethinking Purpose and Governance in the Age of Transformation*. Geneva: WEF Publications.